

**Do'stlikning hayotimizdagи o'rni
Sultonova Moxiniso Omon qizi**

Termiz davlat universiteti

Xorijiy filologiya fakulteti

Filologiya va tillarni o'qitish:

Fransuz tili yo'nalishi

1-kurs talabasi

Do'stlik –ijtimoiy –axloqiy va psixologik tushuncha.O'zaro hurmat, yoqtirish, manfaatlarning umumiyligi , yaqinlik, bir-birini tushunishga asoslangan kishilar o'rtasidagi munosabat shaklini ifodalaydi. Kishilarning muloqot shakli sifatidagi do'stlik, o'rtoqlik, qonqardoshlik, birodarlik tushunchalariga yaqin , lekin psixologik nuqtai nazaridan esa ulardan o'zining alohidaligi tanlash xususiyati , his –tuyg'u bilan farq qiladi. Axloqiy psixologik hodisa va shaxsiy xislat sifatida do'stlik odamning yoshi (bolalik, o'smirlikdagi do'stlik), shaxsning shakllanishi bilan (maktabdagi , talabalik yillaridagi armiyadagi do'stlik) o'zgarib boradi. Ijtimoiy –axloqiy muhit , kishilarning turmush tarzi do'stlikning mazmun mohiyatini belgilaydi.(Epikur , utilitarizm namoyondalari)"tabiiy yoqtirish " hissi (A .Smit)baxtga erishishga ko'maklashish (18 –asr fransuz ma'rifatparvarlari)va boshqalar do'stlikning asosi sifatida qaralgan . Haqiqiy , mustahkam birodarlik yuksak , ijtimoiy ahamiyatiga ega bo'lgan maqsad va ideallar mushtarakligini anglash asosida shakllanadi . Birodarlik millat va xalqlarning o'rtasidagi ijobiy aloqalarda ham o'z ifodasini topadi. Hozirgi davrda ko'p millatli O'zbekistonning rivojlanishi uchun xalqlar o'rtasidagi do'stlik nihoyatda muhim. Xalqlar , millat va elatlar o'rtasidagi birodarlik O'zbekistonda ijtimoiy barqarorlikni ta'minlashning muhim shartlaridan biri.

Yuksak odob va axloqqa ega bo'lgan oliyanob va mehnatsevar kishilar o'zlarini hamisha xalq bilan birga his qiladilar "qo'lga kiritgan yutuqlarini "faqat o'zimniki"

demaydilar , o'rtoqlarim va birodarlarimning yutuqlari,jamoaning yutug'i deydilar . Ular do'stlariga hamkasblariga mehribonlik ko'rsatadilar , qo'pollik va maqtanchoqlik qilmaydilar . Tabiiyki , bunday kishilarning o'rtoqlari ko'p bo'ladi. Xushomadgo'ylik , lagabardorlik , xudbinlik va mansabparastlik axloqsizlikning yaramas sartiqlaridan biri.Ular o'zlarining shaxsiy manfaati yo'lida kishilarga yaqinlashib , do'st tutinadilar. Bu albatta soxta-o'tkinchi do'stlik . Hatto shunday hollar ham bo'ladiki , ba'zi munofiqlar o'z o'rtoqlari

"YANGI O'ZBEKISTONDA TABIIY VA IJTIMOIY-GUMANITAR FANLAR" RESPUBLIKA ILMIY-AMALIY KONFERENSIYASI

Volume 2, Issue 3, Mart 2024

haqida og'iz ko'pirtirib, maqtovga tushadilar , uni ko'klarga ko'taradilar ,lekin kezi kelganda orqasidan g'iybat ,bo'hton qilishdan toymaydilar , hatto uning ustidan qalbaki ,yolg'on – yashiq ig'volarni tarqatadilar .

Xalqimiz aytib o'tgan :

Do'st – do'stni kulfatda sinar

Har kim qo'lidan kelganicha xalqqa xizmat qilsa ,odamlarga foyda va yaxshilikni ravo ko'rsa uning do'stlari ham, o'rtoqlari ham , birodarlari ham ko'payaveradi. Aksincha , o'zini ko'pchilikdan olib ochsa , birovga yaxshilikni ravo ko'rmasa , boshqaning muvaffaqiyatidan ruhlanmasa, o'zi arzimagan yutuqlaridan mag'rurlanib , manmanlikka berilib ketsa , bunday kishilarning na do'sti, na o'rtog'i bo'ladi.,

Arablarda shunday gap bor :

Do'sti yo'q odamni o'ldiringlar .

Bu gap benihoya alam va iztirob bilan aytigani sezilib turibdi. Buning ma'nosi shuki , do'stsiz odam –kishilik jamiyatiga begona . Agar taqdir odamga sahovat ko'rsatib , dunyodagi eng buyuk baxtni tortiq qilmoqchi bo'lsa , degan edi Ernest Telman uni sadoqatli do'stlar bilan siylaydi. Demak , do'st ortirgan odam, bilingki, odobli , shirinsuxan , beg'araz va sahovatlidir.

Do'stlik qanday paydo bo'ladi? uning o'lchovi bormi ?

Bor bo'lsa , ularni nimalarda ko'rish mumkin ?

Do'stlikda qadrlanadigan tomonlar nimalardan iborat?

Do'stlik hissi insonning boshqa fazilatlari singari birdaniga ,bir vaqtda paydo bo'lmaydi. Kishi o'sib –ulg'ayib brogan sari turmush tashvishlari va muammolarini bartaraf etishda hamkor bo'ladigan . Shodlik va quvonchlarini baham ko'radigan odamga ehtiyoj sezadi . Bunday ehtiyojlikni sezmaydigan inson bo'lmaydi . Birodarlik natijasida kishilar o'rtasida eng yaqin munosabatlar paydo bo'ladi. Tomonlar bir- biriga do'stmi deb aytmasa ham shart- sharoitlar , qarashlar birliging o'zi do'stlikni tug'diradi.O'zaro mehr ,ma'naviy yaqinlik , umumiy manfaatlar birligi oqibatida vujudga kelgan kishilarning chinakam ittifoqi –bu do'stlik Chinakam do'stlik ayrim o'zida qarindoshlik aloqalaridan ham mustahkamroq bo'ladi. Do'stlikning kuch- qudrati eng og'ir paytlarda mashaqqatli onlarda yaqqol ko'zga tashlanadi. Do'stlik bir -biriga fazilati, aqli va iqtidoriga tan berishda ko'rindi.Chinakam va yaxshi do'stga ega bo'lish inson uchun katta quvonch , o'rtoqlik va birodarlik har bir inson hayotida alohida o'rinni egallaydi.Shuning uchun ham, ikki do'st baham ko'rsa , bitta

qayg'u yarimta bo'ladi, degan naql bor .Do'stlik beg'araz va beminnat bo'lishi kerak.O'z do'sti uchun inson hamma narsaga qodir bo'lmos'i ,uning uchun har qanday fidoyilikka tayyor turmog'i lozim.

Xalqimiz aytgan : "do'stning uchun zahar yut"

Do'st senga mehr qo'ygan va senga yaxshilikni ravo ko'radigan inson. Bu bilan seni barchani sevishga va hammaga yaxshilik qilishga o'rgatadi , seni himoya qilishga tayyor , bu bilan u dunyodagi barcha yomonliklardan nafratlanishni o'rgatadi. Do'st sendan o'zida yo'q narsani qidiradi, sen esa undan o'zingda yo'q narsani izlaysan, do'st sening yanada yaxshi bo'lishingni istaydi; sen qanchalik aqilli ,kuchli , sahiy qalb ,mehri otash bo'lsang ,bu xislatlar faqat uning uchun emas,balki barcha odamlar uchun qilinayotganligi mammuniyat bilan ma'qullaydi.G'alabangdan quvonadi, mag'lubiyatingdan xafa bo'ladi. U seni hammadan yaxshi tushunadi, fahmlaydi ,senga ishonadi. Bunday do'stlikdan doimo nur taralib turadi, undan yaxshilik urug'lari unib chiqadi.Mirzo Abduqodir Bedil aytganidek:

Do'st birla hat – rohat ,tanho yashamoq otash,

Gulxanga tushar shoxa ayrilsa daraxtidan.

Do'stlik inson xatini boy , quvonchli va baxtli qiladi, unga ma'no va mazmun beradi, o'zlariga baxt- iqbol keltiradi. Do'stlik kishilarni bog'laydigan kuch sifatida ijtimoiy axloqiy qimmatga ega .Shuning uchun o'z mohiyatiga ko'ra jamoatchilikni taqazo etadi. Ana shunday go'zal tuyg'uni har doim qadriga yetish kerak . Ba'zan shunday so'zlar qulqoqqa chalinib qoladi; tanish –bilishlari ko'p –u, do'stlar kam ,hozirgi kunda sadoqatli do'st toppish qiyin ,birovga yaxshilik qilib bo'lmaydi va hokozolar.Bundaylarni vahima shubha baandasi deymiz . Bunday kishilar o'zлari biron – bir marta birovning dardiga sherik , quvonchiga oshna bo'lganmikanlar, biron – bir kishiga beg'araz yaxshilik qilganmikinlar?Bunday kishilar turmushiga ,boshqalar bilan qilgan munosabatiga sinchiklab nazar tashlar ekansiz , faqat ular hatda :" o'zimiz bo'lsa-gu, boshqalar bo'lmasa", "olsag –u bermasak " degan qoidaga sig'inishlarini ko'rasiz. Bunday "soyasi yo'q ", "o'zim bo'lay "deydigan kishilardan odamlar o'zlarini chetga oladilar.Afsuski, do'stlikni o'rgatuvchi fan yo'q .Ammo odamgarchilik qoidalari bor . Bu qoidalalar bir – biriga yaqin kishilarning yuksak madaniyatini,ayni vaqtda o'zaro mas'uliyatni ham talab etadi. O'zaro mas'uliyat esa fidoyilikni , talabchinlikni, prinsipiallikni taqazo etadi. Nosir Xisrav aytganidek:

Chinakam do'st aytgan har o'git masal-

Sirti – zahar erur, tomori –asal.

Inson xati xatolaridan xoli emas . Hamma ham o'zining xatti –harakatlariga tanqidiy baho bera olmaydi.Ammo kamchiliklarni chetgan ko'rghan odamning yuziga aytishga iymanadi ; tanimagan kishilarning gaplari insonga og'ir botadi. Do'sting xatolarining yuzingga aytса , buni tan olsangu , yo'qotishga harakat qilsang . O'zingni qanchalik yengil sezasan kishi. Do'stni xatolardan saqlab qolish- bu insonning muqaddas burchi.Qo'shiqda aytilganidek , do'st bo'lish oson , uni saqlash qiyin. Do'stlikni saqlash , e'zozlashning o'ziga xos qoidalari , fidoyiliklari bor .Buni do'stlikni uzoq yillar saqlab qolgan odamlar yaxshi biladi. Haqiqiy do'stdan ajralish vatan bilan vidolashishga tengdir ,deydi dono xalqimiz ,zero do'stga vafo qilmagan odam Vatanni ham qadrlay olmaydi. Inson do'stlikka va do'st topishga alohida ahamiyat berishi lozim. Hammasi ham do'st deb bilish laqmalik. Kishining do'stligi bir marta sinaladi. Ammo unutmaslik kerakki , do'sti ko'p kishining hati yengil ko'chadi. Shuning uchun ham xalqimiz ,do'sting mingta bo'lsa ham ,dushmaning bitta bo'lsa ko'p deb nasihat qiladi. Do'stlik va o'rtoqlik inson axloqining muhim kategoriyalardan hisoblanadi. Shunga ko'ra " do'st" , "o'rtoq" , "birodar" tushunchalari axloq kodeksidan alohida o'rinni olgan . Ma'lumki ,davlatimiz va hukumatimiz fuqarolarni demokratik jamiyat qurish ishiga sadoqat , ona –Vatanga jo'shqin muhabbat , mehnatga va jamoat mulkiga yangicha munosabatda bo'lisch ,do'stlik va o'rtoqlik ruhida tarbiyalash borasida ko'plab ishlarni amalga oshirmoqda .Bu hamma uchun qimmatli bo'lgan "Do'st" , "O'rtoq" , "Birodar" " so'zlarini tez –tez tilga olib turamiz .Chunki bu so'zlar barcha o'zbek millati vakillari uchun qadrli va qimmatli , shu bilan birga tushunarli bo'lgan chuqur ma'no –insonparvarlik mujassamlashgan. Do'stlik bor joyda mehru muhabbat ,vafo, sadoqat, samimiylilik , adolat,haqiqat qaror topadi, bu esa insonning qalbiga , ruhiga , tafakkuriga ijobiy ta'sir ko'rsatib , yaxshilikka undaydi.Kishilar qalbidagi do'stlik tuyg'ularini o'lchaydigan muayyan bir mezon va qolip bo'lmasa ham , mehr – muhabbat , g'AMDARD – hamdamlik , samimiylilik , ishonch , o'zaro hurmat do'stlik nishonasi.

Foydalanilgan adabiyotlar :

- 1.O'ZME .ikkinci jild ,Toshkent ,2022-yil
- 2.O'zbek pedagogikasi antologiyasi : Ikki jiddlik .Tuzuvchi –mualliflar: K.Hoshimov Safo Ochillar. – T: "O'qituvchi" nashriyoti, 1995-yil .464-b
- 3.Zunnonov A. Pedagogika tarixi .- T: "Sharq" nashriyoti manba aksiyadorlik kompaniyasi bosh tahririyati. – 2004 y -335 b
4. Xasanboyeva O. va boshqalar . Oila pedagogikasi T : " Aloqachi " 2007 , 384 b.
5. Nosir Xisrav . " Safarnoma " T. 2003 .
6. " O'zbek xalq maqollari " arxiv .uz. 2005. y.